

Hujjat kodi: KQIN va KB-UZN-1	“NAVOIYAZOT” AKSIYADORLIK JAMIYATI	Nusxa raqami <u>1</u>
----------------------------------	------------------------------------	--------------------------

“TASDIQLAYMAN”

Boshqaruv raisi

F.X. Samadov

“23” 06 2026 y

**“Navoiyazot” AJ tomonidan xaridlarni amalga oshirish
tartib-taomillari to‘g‘risidagi
NIZOM**

Navoiy sh.

“Navoiyazot” AJ tomonidan xaridlarni amalga oshirish tartib-taomillari to‘g‘risidagi Nizom (keyingi o‘rinlarda — Nizom), O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 22-apreldagi “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi O‘RQ-684-son Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 16-iyundagi “Davlat organlari va tashkilotlarining faoliyati ochiqqligini ta‘minlash, shuningdek, jamoatchilik nazoratini samarali amalga oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PF-6247-son Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 1-maydagi “Sanoat kooperatsiyasini yanada rivojlantirish va talab yuqori bo‘lgan mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-4302-son qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 21-avgustdagi “Mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo‘llab-quvvatlashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PQ-4812-son qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 2-iyuldagi “Davlat xaridlari shaffofligini ta‘minlash va samaradorligini oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PQ-5171-son qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 21-apreldagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha belgilangan ustuvor vazifalar ijrosini samarali tashkil etishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-71-son Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrdagi “Davlat xaridlari tizimida raqobat muhiti va shaffoflikni ta‘minlash bo‘yicha navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-259-son Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF-270-son Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 30-sentabrdagi “Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi huzuridagi raqamli transformatsiya markazining elektron kooperatsiya portalida axborotni joylashtirish va xaridlarini amalga oshirish tartibini tasdiqlash to‘g‘risida” 833-son qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 20-maydagi “Davlat xaridlarini amalga oshirish bilan bog‘liq tartib-taomillarni tashkil etish va o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” 276-son qarorlariga muvofiq ishlab chiqilgan.

“Navoiyazot” AJ va uning ulishi kiritilgan xo‘jalik korxonalari xarid tizimi va xarid komissiyasining (bundan buyon matnda – Xarid komissiyasi deb yuritiladi) asosiy maqsad va vazifalari, huquq va majburiyatlari, faoliyatini tashkil etish tartibi va savdolari o‘tkazish tartib-taomillarini belgilaydi.

I. UMUMIY QOIDALAR

1.1. Ushbu Xaridlar Nizomi “Navoiyazot” AJ (keyingi o‘rinlarda – Jamiyat) va uning ulushi kiritilgan barcha xo‘jalik korxonalari uchun xaridlar sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

1.2. Davlat xaridlarini amalga oshirish bilan bog‘liq tartib-taomillarni tashkil etish va o‘tkazish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan belgilanadi.

1.3. Jamiyat va tarmoq korxonalarining xaridlar sohasidagi ish amaliyotini umumlashtirish va tahlil qilish komissiya ishchi organi tomonidan amalga oshiriladi.

1.4. Davlat xaridlari doirasida (xaridlar turiga ko‘ra) ishlab chiqiladigan hujjatlarni to‘liqligi va Qonunchilik talablariga asosan to‘g‘riligiga Davlat xaridlari bo‘linmalari (boshlig‘i) bevosita javobgar xisoblanadi.

Xarid qilish platformalariga va IC “G‘aznachik” tizimiga tovar (ish va xizmat)larni narxlari va xususiyatlariga bog‘liq bo‘lgan barcha zarur hujjatlarni qonunchilik talablari asosida ishlab chiqilib joylashtirilishiga mas‘ul.

Tovar (ish va xizmat)larni dastlabki narxlarini o‘rganish va shakllantirishga bevosita javobgar xisoblanadi. Boshqa bo‘linmalar (departament, boshqarma, bo‘lim, xizmat va boshqalar) dastlabki narxlarni belgilash va yetkazib beruvchilar bilan muzokaralar olib borishga yo‘l qo‘yilmaydi.

1.5. Xarid qilish tashabbuskorlari (departament, boshqarma, bo‘lim, xizmat va bosh.lar) tovar (ish va xizmat)larni texnik xususiyatlari, texnik topshiriqlar, bajariladigan ishlar smetasini (vakolati doirasidagi hujjatlar) ishlab chiqishga mas‘ul xisoblanadi.

1.6. Mazkur Xaridlar Nizomida quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:

davlat buyurtmachisi — “Navoiyazot” hamda mazkur muassasalar ulushi bo‘lgan korxona va idoralar;

benefitsiar mulkdor — pirovardida mulk huquqlariga egalik qiladigan yoki tovarlar (ishlar, xizmatlar) yetkazib beruvchini amalda nazorat qiladigan jismoniy shaxs;

boshlang‘ich narxni pasaytirish uchun o‘tkaziladigan auksion — davlat xaridlari elektron tizimining maxsus platformasida davlat xaridlarini amalga oshirishning raqobatli usuli bo‘lib, uni tashkil etish chog‘ida narx g‘olibni aniqlashning yagona mezon bo‘ladi;

davlat xaridlari — davlat buyurtmachilarining tovarlarga (ishlarga, xizmatlarga) bo‘lgan ehtiyojlarini pulli asosda ta‘minlash jarayoni;

davlat xaridlari to‘g‘risidagi shartnoma — davlat buyurtmachisi va davlat xaridlarining ijrochisi o‘rtasidagi davlat xaridlari bo‘yicha huquqlar va majburiyatlarni belgilash, o‘zgartirish yoki bekor qilish to‘g‘risidagi kelishuv;

davlat xaridlarining subyektlari — davlat buyurtmachisi, xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchisi, davlat xaridlarining ijrochisi, xarid komissiyasi, davlat xaridlari elektron tizimining operatori, ixtisoslashgan tashkilot va ekspert, ekspert tashkiloti;

dastlabki malaka tanlovi — xarid qilish hujjatlarida belgilangan texnik, iqtisodiy, tashkiliy va boshqa o‘ziga xos xususiyatlarga muvofiq bo‘lgan xarid qilish tartib-taomillarini o‘tkazishga qo‘yiladigan malakali xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchilarini tanlab olishning xarid komissiyasi tomonidan o‘tkaziladigan tartib-taomili;

zaxiradagi g'olib — xarid qilish tartib-taomillari yakunlari bo'yicha xarid komissiyasining qaroriga muvofiq g'olibning taklifidan keyingi eng maqbul taklifni taqdim etgan deb topilgan xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchisi;

tender — davlat xaridini amalga oshirishning raqobatli tartib-taomili vositasida davlat xaridlarining ijrochisini aniqlash tartib-taomilini nazarda tutuvchi tanlov bo'lib, uning natijalariga ko'ra davlat xaridlari to'g'risidagi shartnomani bajarishning eng yaxshi shartlarini taklif etgan xarid qilish tartib-taomillarining ishtirokchisi g'olib deb topiladi;

xarid qilish tartib-taomili — davlat xaridlarini amalga oshirish bilan bog'liq harakatlar majmui;

xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchisining affillangan shaxsi — qaror qabul qilish huquqiga ega bo'lgan va (yoki) xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchisi tomonidan qarorlar qabul qilishga ta'sir ko'rsatadigan, shu jumladan yozma kelishuv asosida ta'sir ko'rsatadigan jismoniy yoki yuridik shaxs, shuningdek xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchisiga nisbatan shunday huquqqa ega bo'lgan jismoniy yoki yuridik shaxs;

elektron davlat xaridlari — axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda davlat xaridlarini amalga oshirish shakli;

elektron do'kon — davlat xaridlarining elektron tizimidagi maxsus maydonda savdolarini elektron shaklda amalga oshirishni nazarda tutuvchi, maxsus talablar qo'yilmaydigan tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) davlat xaridlarini amalga oshirishning raqobatli usuli;

eng yaxshi takliflarni tanlash — xarid qilish tartib-taomillarining bir nechta ishtirokchisidan olingan takliflarni taqqoslash asosida davlat xaridlarini amalga oshirishning raqobatli usuli;

e'lon — davlat xaridlarini amalga oshirish usuli, talablari va shartlari, takliflarni taqdim etish muddatlari hamda tartibi ko'rsatilgan, maxsus axborot portali orqali davlat xaridlarining elektron tizimiga davlat buyurtmachisi tomonidan joylashtiriladigan bo'lajak davlat xaridlari to'g'risidagi axborot;

g'olib — xarid qilish tartib-taomillari yakunlariga ko'ra taklifi eng maqbul deb topilgan xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchisi;

Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens nazorat (Komplayens) — bu tashkilot yoki davlat organi faoliyatini qonunchilik, xalqaro standartlar va ichki odob-axloq qoidalariga muvofiqligini ta'minlovchi ichki nazorat tizimidir. Uning asosiy maqsadi korrupsiya xavf-xatarlarini oldindan aniqlash, ularga chek qo'yish va manfaatlar to'qnashuvini boshqarishdan iborat.

II. Eng yaxshi takliflarni tanlash

Eng yaxshi takliflarni tanlashni o'tkazish mezonlari

2.1 Eng yaxshi takliflarni tanlash (bundan buyon matnda tanlash deb yuritiladi) vositasidagi davlat xaridi quyidagi shartlar bir vaqtning o'zida bajarilgan taqdirda amalga oshiriladi:

g'olibni aniqlash mezonlari tovar (ish, xizmat) davlat xaridining nafaqat pul ifodasiga, balki miqdoriy va sifat bahosiga ham ega bo'ladi;

tovarning (ishning, xizmatning) qiymati bir shartnoma bo'yicha bazaviy hisoblash miqdorining yigirma besh ming baravarigacha bo'lgan miqdorni tashkil etadi.

Agar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari bilan davlat buyurtmachilariga tender o'tkazmasdan xaridlarni amalga oshirish huquqi berilsa, xarid qilish tartib-taomili davlat xaridining summasidan qat'i nazar tanlash orqali amalga oshiriladi. Bunda tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) qiymati bazaviy hisoblash miqdorining yigirma besh ming baravari miqdoridan oshgan hollarda davlat xaridiga doir texnik topshiriqlar qonunchilikda belgilangan tartibda ekspertiza uchun O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi huzuridagi "Loyihalar va import kontraktlarini kompleks ekspertiza qilish markazi" davlat unitar korxonasiga (bundan buyon matnda Kompleks ekspertiza qilish markazi deb yuritiladi) kiritiladi.

Tanlash majburiy tartibda elektron shaklda o'tkaziladi, bundan qonunchilikda nazarda tutilgan hollar mustasno.

Tanlashni o'tkazishda xarid komissiyasi

2.2. Davlat xaridini tanlash orqali amalga oshirish uchun davlat buyurtmachisining xodimlari orasidan kamida besh nafar a'zodan iborat tarkibda xarid komissiyasi tuziladi.

Tanlashni o'tkazishda xarid komissiyasi a'zolarining kamida uchdan ikki qismi hozir bo'lishi lozim, har bir majlis va qabul qilingan qaror bayonnomalar bilan rasmiylashtirilishi kerak.

Tanlash o'tkazilishi to'g'risidagi e'lon

2.3. Tanlash vositasidagi davlat xaridi to'g'risidagi axborot davlat buyurtmachisi tomonidan cheklanmagan miqdordagi shaxslarga maxsus axborot portali orqali davlat xaridlarining elektron tizimiga, shuningdek davlat buyurtmachisining xohishiga ko'ra — uning rasmiy veb-saytiga yoki uning yuqori turuvchi organining rasmiy veb-saytiga, shuningdek ommaviy axborot vositalarida tanlash o'tkazish to'g'risidagi e'lonni va tanlash bo'yicha xarid qilish hujjatlarini joylashtirish yo'li bilan ma'lum qilinadi.

Agar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari bilan davlat buyurtmachilariga tender o'tkazmasdan xaridlarni amalga oshirish huquqi beriladigan bo'lsa, tanlash o'tkazish to'g'risidagi e'lon faqat davlat xaridiga doir texnik topshiriq bo'yicha Kompleks ekspertiza qilish markazining ijobiy xulosasi olinganidan keyin joylashtiriladi.

Tanlash o'tkazilishi to'g'risidagi e'lon va tanlash bo'yicha xarid qilish hujjatlari davlat buyurtmachisi tomonidan takliflarni qabul qilish muddati tugaydigan sanadan kamida besh ish kuni oldin maxsus axborot portali orqali davlat xaridlarining elektron tizimiga, shuningdek davlat buyurtmachisining xohishiga ko'ra — o'zining rasmiy veb-saytiga yoki o'zining yuqori turuvchi organining rasmiy veb-saytiga, shuningdek ommaviy axborot vositalarida joylashtiriladi.

Xarid qilinayotgan tovarning (ishning, xizmatning) o'ziga xos xossalaridan yoki xususiyatlaridan kelib chiqib, davlat buyurtmachisi tanlash o'tkazilishi to'g'risidagi e'lonni ushbu moddaning uchinchi qismida belgilanganiga nisbatan uzoqroq muddatga joylashtirishga haqli.

Tanlash o'tkazilishi to'g'risidagi e'lon quyidagi axborotlarni o'z ichiga olishi kerak:
tanlashni o'tkazish shakli;

tovarning (ishning, xizmatning) batafsil tavsifi va boshlang'ich narxi;
tanlash o'tkaziladigan joyning manzili;
ishtirokchilarga qo'yiladigan talablar;

davlat buyurtmachisining ishtirokchilar bilan bog'lanish uchun aloqa bog'lovchi shaxslar sifatida belgilangan bir yoki bir nechta mansabdor shaxslarining yoki boshqa xodimlarining familiyasi, ismi, sharifi, lavozimi va manzili;

ishtirokchilar tomonidan takliflar berish muddati tugaydigan sana va vaqt;
taklifni rasmiylashtirishga doir talablar.

Tanlash o'tkazish to'g'risidagi e'lon va (yoki) tanlashda ishtirok etish uchun taklif qonunchilikka zid bo'lmagan boshqa axborotlarni ham o'z ichiga olishi mumkin.

Tanlash bo'yicha xarid qilish hujjatlari

2.4. Tanlash bo'yicha xarid qilish hujjatlari maxsus axborot portali orqali davlat xaridlarining elektron tizimiga tanlash o'tkazilishi to'g'risidagi e'lonni joylashtirish bilan bir vaqtda davlat buyurtmachisi tomonidan joylashtiriladi.

Tanlash bo'yicha xarid qilish hujjatlari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

tanlash o'tkazilishi to'g'risidagi e'londa ko'rsatilgan axborot;

ijrochilar bilan hisob-kitoblarni shakllantirish uchun foydalaniladigan valyuta, to'lov tartibi va yetkazib berish shartlari haqidagi axborot;

tanlashda ishtirok etish uchun taklifni davlat tilida va, zaruriyatga qarab, boshqa tillarda tayyorlash majburiyligi to'g'risidagi talab;

ishtirokchilarga tanlash bo'yicha xarid qilish hujjatlari qoidalariga doir tushuntirishlarni taqdim etish tartibi, taqdim etish muddati boshlanadigan va tugaydigan sana;

texnik topshiriq;

ushbu Qonunga muvofiq takliflarni baholash mezonlari va ko'rib chiqish tartibi;

tanlash ishtirokchilari tomonidan korrupsiya ko'rinishlariga yo'l qo'ymaslik bo'yicha ariza taqdim etish majburiyligi haqidagi talab.

Tanlash bo'yicha xarid qilish hujjatlarida davlat buyurtmachisi har bir tovar (ish, xizmat) xarid qilish tartib-taomilining alohida birligi sifatida ko'rib chiqilishini e'lon qilishi mumkin. Bunday holda davlat buyurtmachisi turli tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) yetkazib berish uchun tanlashning bir nechta ishtirokchisi bilan shartnomalar tuzishi mumkin, bunda har bir tovar (ish, xizmat) uchun faqat bitta g'olib aniqlanishi mumkin. Har bir tovar (ish, xizmat) uchun g'olib xarid qilish tartib-taomilining shartlariga ko'ra alohida-alohida aniqlanadi.

Tanlash bo'yicha xarid qilish hujjatlariga ularning ajralmas qismi bo'lgan shartnoma loyihasi ilova qilinadi.

Davlat buyurtmachisi xarid komissiyasi bilan kelishilgan tanlash bo'yicha xarid qilish hujjatlarini tasdiqlaydi.

Davlat buyurtmachisi xarid komissiyasi bilan kelishilgan holda tanlashda ishtirok etish uchun takliflar berish muddati tugaydigan sanadan bir ish kunidan kechiktirmay tanlash bo'yicha xarid qilish hujjatlariga o'zgartirishlar kiritish to'g'risida qaror qabul qilishga haqli. Bunda ushbu tanlashda takliflarni taqdim etishning tugash muddati kamida uch ish kuniga uzaytiriladi. Shu bilan birga, e'londa ko'rsatilgan axborot o'zgartirilgan bo'lsa, tanlash o'tkazish to'g'risidagi e'longa o'zgartirishlar kiritiladi. Tovarlarini (ishlarni, xizmatlarni) o'zgartirishga yo'l qo'yilmaydi.

Tanlash ishtirokchilarining takliflarini berish tartibi

2.5. Tanlash ishtirokchilarining takliflari e'londa va tanlash bo'yicha xarid qilish hujjatlarida belgilangan tartibda tanlash o'tkazish to'g'risidagi e'londa ko'rsatilgan manzil bo'yicha muhrlangan konvertlarda taqdim etiladi.

Elektron shaklda tanlash o'tkazish chog'ida tanlash ishtirokchilarining takliflarini berish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Taklifda davlat xaridi obyekti bo'lgan tovarning eskizi, rasmi, chizmasi, fotosurati va boshqa tasviri, nusxasi, namunasi bo'lishi mumkin.

Tanlash ishtirokchisi taqdim etilayotgan axborot va hujjatlarning haqiqiyliги va to'g'riligi uchun javobgar bo'ladi.

Tanlash ishtirokchisi faqat bitta taklif berishga haqli.

Tanlash uchun takliflarni qabul qilish maxsus axborot portalі orqali davlat xaridlarining elektron tizimida chop etilgan e'londa ko'rsatilgan muddat kelishi bilan tugatiladi.

Tanlashni o'tkazish

2.6. Agar tanlashda ishtirok etish uchun takliflarni taqdim etish muddati tugagan paytda faqat bitta taklif taqdim etilgan yoki birorta ham taklif taqdim etilmagan bo'lsa, tanlash o'tkazilmagan deb hisoblanadi. Bunda davlat buyurtmachisi "Davlat xaridlari to'g'risda"gi Qonun talablariga muvofiq yangi tanlash o'tkazishi yoxud elektron do'kon ("Davlat xaridlari to'g'risda"gi Qonunning 49-moddasida belgilangan mezonlar doirasida) yoki auksion orqali xaridni amalga oshirishi mumkin.

E'londa tanlash o'tkaziladigan vaqt sifatida ko'rsatilgan vaqtda tanlash komissiyasi tanlash ishtirokchilari tomonidan berilgan takliflar solingan konvertlarni takliflarni baholash uchun ochadi. Kelib tushgan takliflar xarid komissiyasi tomonidan ko'rib chiqiladi. Tanlash bo'yicha xarid qilish hujjatlari talablariga mos kelmaydigan takliflar xarid komissiyasi tomonidan rad etiladi va baholanmaydi. Tanlashni o'tkazishda ishtirokchilarning boshlang'ich narxdan yuqori bo'lgan narx bo'yicha takliflari xarid komissiyasi tomonidan rad etiladi va baholanmaydi.

Agar xarid komissiyasi tomonidan ishtirokchilardan tanlash bo'yicha xarid qilish hujjatlarida ko'rsatilgan talablarga javob beradigan kamida ikkita taklif olingan bo'lsa, tanlash o'tkazilgan deb hisoblanadi.

Ishtirokchilarning barcha takliflari tanlash bo'yicha xarid qilish hujjatlarida ko'rsatilgan mezonlar asosida baholanadi va tanlash o'tkazish bayonnomasida qayd etiladi.

Tanlash ishtirokchilarining takliflarini ko'rib chiqish va baholash muddati takliflar berish tugagan paytdan e'tiboran o'n ish kunidan oshishi mumkin emas.

Ishtirokchilarning takliflarini baholash ikki bosqichda amalga oshirilishi mumkin.

Summasi bir shartnoma bo'yicha bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravari miqdoridan oshmaydigan tanlash xarid komissiyasining ishtirokisiz o'tkazilishi mumkin, biroq bir moliya yilida bir korporativ buyurtmachi uchun bazaviy hisoblash miqdorining bir ming baravari miqdoridagi summadan ko'p bo'lmasligi kerak. Bunda g'olib davlat buyurtmachisi tomonidan tanlash o'tkazilishi to'g'risidagi e'lonni joylashtirmasdan, ochiq axborot manbalaridan olingan narxlarni solishtirish yo'li bilan yoki tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) potensial yetkazib beruvchilaridan narxlarni so'rash yo'li bilan aniqlanadi. Rasmiylashtirilgan hujjatlar, tuzilgan shartnomalar va ularga doir qo'shimcha kelishuvlar to'g'risidagi axborot ular rasmiylashtirilgan yoki tuzilgan sanadan e'tiboran uch ish kunidan kechiktirmay davlat buyurtmachisi tomonidan maxsus axborot portalida joylashtiriladi.

Tanlash g'olibini aniqlash

2.7. Takliflarni taqqoslash natijalariga ko'ra xarid komissiyasi tanlash g'olibini aniqlaydi va tanlash o'tkazish natijalarini bayonnomada aks ettiradi.

Xarid komissiyasining qarori bilan tanlash bo'yicha xarid qilish hujjatlarida va taklifda ko'rsatilgan mezonlarga muvofiq g'olibning taklifidan keyingi eng maqbul taklifni taqdim etgan ishtirokchi sifatida e'tirof etilgan zaxiradagi g'olib aniqlanishi mumkin.

Bayonnoma davlat buyurtmachisi tomonidan u rasmiylashtirilgan kunda davlat xaridlarining elektron tizimiga muhokama qilish uchun ikki ish kuniga joylashtirilishi kerak.

Agar ikki ish kuni ichida tanlash ishtirokchilari tomonidan tanlash o'tkazish natijalari bo'yicha e'tirozlar kelib tushmagan bo'lsa, davlat buyurtmachisi va xarid komissiyasi tomonidan g'olib deb topilgan ishtirokchi o'rtasida shartnoma tuziladi.

Muhokama uchun belgilangan muddat tugaganidan keyin kelib tushgan e'tirozlar xarid komissiyasi tomonidan ko'rib chiqilmaydi.

Tanlash ishtirokchilari tomonidan tanlash o'tkazish natijalari bo'yicha e'tirozlar kelib tushganda, xarid komissiyasi e'tirozlarni ko'rib chiqadi va tegishli qaror qabul qiladi.

Davlat buyurtmachisi tomonidan xarid komissiyasiga taqdim etilgan muhokama natijalari to'g'risidagi axborot asosida xarid komissiyasining tegishli majlisi bayonnomasi rasmiylashtiriladi va imzolangan kundan boshlab uch ish kuni ichida davlat xaridlarining elektron tizimiga joylashtiriladi.

Tanlash natijalari bo'yicha tuzilgan shartnoma to'g'risidagi axborot davlat buyurtmachisi tomonidan maxsus axborot portaliga u tuzilgan kundan boshlab uch ish kundan kechiktirmay joylashtiriladi.

Tanlash natijalarini rasmiylashtirish

2.8. Tanlash natijalariga doir shartnoma tanlash bo'yicha xarid qilish hujjatlarida va o'zi bilan shartnoma tuzilayotgan tanlash ishtirokchisi tomonidan taqdim etilgan taklifda nazarda tutilgan shartlar asosida tuziladi.

Davlat buyurtmachisi tomonidan tanlash bo'yicha xarid qilish hujjatlarida g'olib shartnomaning shartlari bajarilishi ta'minotini taqdim etganidan keyin shartnoma tuzilishini nazarda tutuvchi shart qo'yilishi mumkin.

G'olib shartnoma tuzishni rad etgan taqdirda unga zakalat summasi qaytarib berilmaydi. Agar xarid komissiyasi tomonidan zaxiradagi g'olib aniqlangan bo'lsa, shartnoma tuzish va unga doir majburiyatlarni bajarish huquqi zaxiradagi g'olibga o'tadi. Bunda zaxiradagi g'olib g'olib tomonidan taklif etilgan narx bo'yicha (bundan zaxiradagi g'olib taklif etgan narx g'olib tomonidan taklif etilgan narxdan past bo'lgan hollar mustasno) shartnoma tuzadi yoki shartnoma tuzishni rad etishi mumkin.

Agar xarid komissiyasi tomonidan zaxiradagi g'olib aniqlanmagan bo'lsa yoki zaxiradagi g'olib shartnoma tuzishni rad etgan bo'lsa, buyurtmachi "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonun talablariga muvofiq yangi tanlash o'tkazishi yoxud elektron do'kon ("Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonunning 49-moddasida belgilangan mezonlar doirasida) yoki auksion orqali xaridni amalga oshirishi mumkin.

III. Elektron tender o'tkazish tartib-taomillari

Elektron tender orqali davlat xaridlarini amalga oshirish shartlari va xarid komissiyasi faoliyatini tartibga solish

3.1. Elektron tender o'tkazish uchun davlat buyurtmachisi huzurida toq sonli (yetti kishidan kam bo'lmagan) a'zolaridan iborat xarid komissiyasi tuziladi.

3.2. Xarid komissiyasi a'zolarining tarkibi va soni xarid qilish tartib-taomilining turiga bog'liq bo'ladi hamda olinayotgan tovarning (ishning, xizmatning) xususiyatlari inobatga olingan holda o'zgartirilishi mumkin.

3.3. Elektron tender xo'jalik faoliyati doirasida o'tkazilganda xarid komissiyasi davlat buyurtmachisining vakillari orasidan, zarur bo'lgan taqdirda ovoz berish huquqiga ega ekspertlar jalb etilgan holda shakllantiriladi.

3.4. Xarid komissiyasi tarkibiga O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi "O'zInjining" Respublika loyihalashtirish instituti vakillari kiritilishi shart.

3.5. Xarid komissiyasi davlat buyurtmachisining tegishli qarorlari bilan shakllantiriladi va tarqatib yuboriladi.

3.6. Elektron tender o'tkazish bo'yicha xarid komissiyasining tezkor faoliyatini uning ovoz berish huquqiga ega bo'lmagan mas'ul kotibi tashkillashtiradi.

Xarid komissiyasining mas'ul kotibi:

ishtirokchilarning takliflarini tender hujjatlarining rasmiylashtirish talablariga mos kelishi bo'yicha tekshirishni amalga oshiradi va tekshirish natijalarini xarid komissiyasiga ko'rib chiqish uchun taqdim qiladi;

tasdiqlangan mezonlar bo'yicha ishtirokchilarning takliflarini baholash natijalarini elektron tizimda joylashtiradi.

3.7. Davlat buyurtmachisi xarid komissiyasining har bir a'zosiga va mas'ul kotibiga o'z vazifalarini amalga oshirish uchun elektron tizimda shaxsiy kabinet ochadi.

3.8. Xarid komissiyasining vakolatiga kiritilgan masalalarni ko'rib chiqish uchun xarid komissiyasining a'zolari va mas'ul kotibining elektron tizim tomonidan yopiq chat orqali muloqot qilish imkoniyati ta'minlanadi.

3.9. Elektron tizimdagi shaxsiy kabinetga birinchi marotaba kirilayotganda xarid komissiyaning har bir a'zosi, shu jumladan uning raisi ishtirokchilar bilan affillanganlik xususiyatiga ega aloqalar mavjudligi to'g'risida ma'lumotlarni kiritishi shart. Operator xarid komissiyasi a'zolari tomonidan kiritilgan ma'lumotlarning maxfiyligini ta'minlash bo'yicha javobgar bo'ladi.

3.10. Xarid komissiyasi a'zolarida ishtirokchilar bilan affillanganlik xususiyatiga ega aloqalar mavjud bo'lgan taqdirda, xarid komissiyasining bunday a'zosi bu masala ko'tarilgan majlisda o'zini o'zi rad etishi va mazkur masala bo'yicha ovoz berishda ishtirok etmasligi kerak, bu haqda bayonnomada qayd etiladi.

Ishtirokchilarning xarid qilish tartib-taomillarida ishtirok etish bilan bog'liq masalalarni ko'rib chiqishda xarid komissiyasi a'zolarining ushbu ishtirokchilar bilan affillanganlik xususiyatiga ega aloqalar mavjud bo'lganda tizim ushbu xarid komissiyasi a'zosining ovozini mazkur masala bo'yicha ovoz berish natijalaridan chiqarib tashlaydi.

3.11. Xarid komissiyasi raisining affillanganlik xususiyatiga ega aloqalari mavjud bo'lsa, elektron tenderni o'tkazish jarayoni davlat buyurtmachisi tomonidan yangi xarid komissiyasi raisi tayinlanguniga qadar to'xtatiladi.

3.12. Xarid komissiyasining har bir a'zosi o'zining shaxsiy kabineti orqali ovoz berishda yoqlab ovoz berishi, qarshi ovoz berishi yoki unda ishtirok etishdan bosh tortishi mumkin. Xarid komissiyasi a'zosi qarshi ovoz berganda elektron bayonnomada sharh qoldirishi shart. Belgilangan muddatlarda xarid komissiya a'zosi shaxsiy kabineti orqali ovoz

berishdan bosh tortgan taqdirda, uning ovozi betaraf sifatida qabul qilinadi. Xarid komissiya raisi ovoz berishda betaraf qolishga haqli emas.

Elektron tender o'tkazishda tender hujjatlarini ishlab chiqish va tender o'tkazilishi to'g'risidagi e'lonni joylashtirish

3.13. Davlat buyurtmachisi tomonidan elektron tender o'tkazish to'g'risidagi qaror qabul qilinganidan so'ng davlat buyurtmachisining mutaxassislari yoki elektron tenderni tashkillashtirish va o'tkazish uchun mas'ul shaxs tomonidan tender hujjatlarining, shartnoma va elektron tender o'tkazish haqidagi e'lonning matni ishlab chiqiladi.

3.14. Elektron tender o'tkazilishi to'g'risidagi e'londa quyidagi axborot bo'lishi kerak:

tovarning (ishning, xizmatning) batafsil tavsifi va narxi;

elektron tender o'tkazadigan operatorning nomi va uning veb-saytiga havola;

elektron tender ishtirokchilariga qo'yiladigan talablar;

davlat buyurtmachisining ishtirokchilar bilan aloqada bo'lish uchun bog'lovchi shaxslar sifatida belgilangan bir yoki bir nechta mansabdor shaxsining yoki boshqa xodimlarining F.I.O., lavozimi va manzili;

tender takliflarini berish muddati tugaydigan sana va vaqt;

tender takliflarini rasmiylashtirishga doir talablar.

Elektron tender o'tkazish to'g'risidagi e'londa qonun hujjatlariga zid bo'lmagan boshqa axborot ham bo'lishi mumkin.

3.15. Tender hujjatlarida quyidagilar bo'lishi kerak:

elektron tender o'tkazilishi to'g'risidagi e'londa ko'rsatilgan axborot;

shartnoma bahosini va ijrochilar bilan hisob-kitoblarni shakllantirish uchun foydalaniladigan valyuta hamda to'lov tartibi haqidagi axborot;

elektron tenderda ishtirok etish uchun tender taklif qaysi tilda tayyorlanishi kerakligi bo'yicha talab;

elektron tender ishtirokchisi tender taklifining texnik va narxga oid qismi, ularni baholash tartibi to'g'risidagi axborot;

elektron tender ishtirokchilariga tender hujjatlari qoidalariga doir tushuntirishlarni taqdim etish tartibi, taqdim etish muddati boshlanadigan va tugaydigan sana;

texnik topshiriq;

Qonunga muvofiq ishtirokchilarning tender takliflarini baholash usullari, mezonlari va ko'rib chiqish tartibi.

Tender hujjatlarida elektron tender ishtirokchilari malakasiga oid talablar nazarda tutilishi mumkin.

3.16. Tender taklifining texnik va narx qismi bo'yicha davlat buyurtmachisining tovarlarga (ishlarga, xizmatlarga) bo'lgan ehtiyojlarini qondirish uchun taklifning har bir qismini baholash ahamiyatiga qarab nisbiy qiymati belgilanadi.

Tender hujjatlarida ballarning boshlang'ich qiymatlari belgilanishi mumkin va ulardan o'tmagan ishtirokchi elektron tenderdan chetlatiladi.

Tender taklifining texnik qismi uchun miqdoriy ko'rsatkichlardan (malakali mutaxassislar soni, yetkazib berish muddati, ish tajribasi va boshqalar) yoki ekspert bahosidan kelib chiqqan holda baholash mezonlari belgilanadi.

Ball usulidan foydalanganda tender taklifining texnik qismining har bir baholash mezonini bo'yicha nisbiy qiymat belgilanishi mumkin. Eng past narx usulidan foydalanganda ishtirokchining taklifi tender hujjatlarida belgilangan talablarga mos kelishi yoki mos kelmasligini aniqlovchi mezonlar belgilanishi mumkin.

Tender hujjatlarida belgilangan mezonlar o'ta muhim qiymatga ega bo'lishi mumkin. Bunda tender taklifining belgilangan mezonlarga mos kelmasligi ishtirokchini elektron tenderning har qanday bosqichida chetlatilishiga olib keladi.

Shartnoma summasi (narxi) tender taklifi narx qismining yagona mezoni hisoblanadi.

3.17. Davlat buyurtmachisi tender hujjatlarini kelishish uchun elektron shaklda xarid komissiyasiga kiritadi.

3.18. Xarid komissiyasi o'zining yuzma-yuz majlisida yoki masofadan turib tender hujjatlari loyihasini Qonun talablariga muvofiqligi bo'yicha ko'rib chiqadi va quyidagilarni belgilaydi:

tender takliflari qabul qilinadigan muddatlar;

tender takliflarini baholash usullari va mezonlari;

tender taklifi qismlarining va zarur hollarda texnik qismining har bir baholash mezoni bo'yicha nisbiy qiymati;

tender taklifini ta'minlash hajmi va shakli.

3.19. Elektron tender o'tkazishni amalga oshirish haqidagi e'lon qo'shimcha ravishda davlat buyurtmachisining rasmiy veb-saytida yoki o'zining yuqori turuvchi organi rasmiy veb-saytiga, shuningdek ommaviy axborot vositalariga joylashtirilishi mumkin.

3.20. Zarur bo'lgan hollarda davlat buyurtmachisi tomonidan tender takliflarini berish muddati uzaytirilishi yoki elektron tender ishtirokchilariga tender takliflari qabul qilinishi muddati xarid komissiyasi qarori bilan ma'lum vaqtga uzaytirish taklifi bilan murojaat qilishi mumkin.

Elektron tender natijalarini sarhisob qilish

3.21. Uch yoki undan ortiq elektron tender ishtirokchilari — mahalliy ishlab chiqaruvchilar bo'lgan taqdirda davlat xaridlari davlat buyurtmachisining tanloviga ko'ra mahalliy ishlab chiqaruvchilar o'rtasida amalga oshirilishi mumkin.

3.22. Elektron tenderda bitta ishtirokchi ishtirok etgan yoki birona ishtirokchi ishtirok etmagan taqdirda tanlov o'tkazilmagan deb topiladi. Bunday holatda davlat buyurtmachisi tenderni ayni o'sha shartlarda hamda tovarga (ishga, xizmatga) doir ayni o'sha mezonlarga va talablarga muvofiq takroran amalga oshirishi shart.

3.23. Elektron tender xarid komissiyasi tomonidan belgilangan muddatda o'tkazilganda elektron tizim avtomatik ravishda ishtirokchilar tomonidan joylashtirilgan va ularning tender takliflarini tashkil etuvchi elektron hujjatlarni ko'rish imkoniyatini beradi.

Biriktirilgan fayllardagi ma'lumotlarning ishtirokchining tender taklifida ko'rsatilgan ma'lumotlarga muvofiqligini tekshirish xarid komissiyasining mas'ul kotibi tomonidan amalga oshiriladi.

3.24. Tender takliflarini baholash quyidagi ketma-ketlikda amalga oshiriladi:

tender taklifining tender hujjatlarida ko'rsatilgan talablarga mos ravishda rasmiylashtirilganligini tekshirish;

ishtirokchining malaka talablarga (tender hujjatlarida nazarda tutilgan bo'lsa) muvofiqligini baholash;

tender taklifining texnik qismini baholash;

tender taklifining narx qismini baholash.

Bunda elektron tizim tender taklifining malaka, texnik va narx qismlarida mavjud bo'lgan ma'lumotlarni tender taklifining oldingi qismi baholanishi yakunlangandan so'ng ketma-ketlik bilan oshkor qilinishini ta'minlaydi.

3.25. Agar tender taklifi Qonunning va tender hujjatlarining talablariga muvofiq kelsa, u tegishli tarzda rasmiylashtirilgan deb topiladi. Tender taklifi tender hujjatlarining talablariga muvofiqligi yoki nomuvofiqligi bo'yicha xarid komissiyasi mas'ul kotibining qarori uning asoslangan sabablari bilan xarid komissiyasi tomonidan tasdiqlanishi lozim.

3.26. Ishtirokchining tender taklifi talablarga mos kelmaganligi to'g'risidagi qaror, ushbu qaror qabul qilingan kunda ishtirokchining shaxsiy kabinetiga yuboriladi.

3.27. Elektron tender g'olibini aniqlash uchun rad etilmagan tender takliflarini baholash tender hujjatlarida belgilangan mezonlar va usul asosida amalga oshiriladi. Davlat buyurtmachisi ishtirokchilarning tender takliflarini baholash usulini (eng past narx usulini yoki ball usulini) va mezonlarini ishlab chiqadi va xarid komissiyasiga kelishish uchun kiritadi.

3.28. Tender takliflarini baholash vaqtida xarid komissiyasining mas'ul kotibi elektron tender ishtirokchilaridan ularning tender takliflari yuzasidan tushuntirishlar so'rashga haqli. Mazkur jarayon elektron shaklda o'tkaziladi.

3.29. Tender taklifning texnik qismini miqdoriy ko'rsatkichlarga asosan baholash, shuningdek taklifning narx qismini baholash elektron tizim tomonidan avtomatik ravishda amalga oshiriladi.

Miqdor ko'rsatkichlariga ega bo'lmagan taklifning texnik qismining mezonlari (ekspert mezonlari) bo'yicha ishtirokchilarning takliflarini baholash va taqqoslash xarid komissiyasi tomonidan ovoz berish orqali amalga oshiriladi.

Tender hujjatlari shablonlarini to'ldirishda miqdoriy (o'lchov birligini belgilagan holda) va ekspert mezonlarni xarid komissiyasi tasdiqlaydi.

3.30. Miqdor ko'rsatkichlariga asoslangan mezonlarni baholashda:
tender hujjatlarida ko'rsatkichlarning eng kam va eng ko'p qiymatlari belgilanishi mumkin;

miqdor ko'rsatkichlari eng kam va eng ko'p hisobga olinadigan qiymatlari oralig'ida bo'lgan ishtirokchilar uchun ball koeffitsiyenti uning miqdor ko'rsatkichining eng kam va eng ko'p hisobga olinadigan qiymatlarining farqiga bo'lgan nisbatini aniqlash orqali hisoblanadi;

agar ma'lum bir mezon bo'yicha ishtirokchining miqdor ko'rsatkichi tender hujjatlarida belgilangan shartlarga muvofiq eng kam hisobga olinadigan qiymatidan kam bo'lsa, ishtirokchiga eng kam ball qo'yiladi;

agar ma'lum bir mezon bo'yicha ishtirokchining miqdor ko'rsatkichi eng ko'p hisobga olinadigan qiymatidan yuqori bo'lsa, uning ko'rsatkichi eng ko'p hisobga olinadigan qiymatidan qay darajada yuqoriligidan qat'i nazar unga ushbu mezon bo'yicha eng yuqori ball beriladi;

miqdoriy yoki ekspert mezonini baholash elektron tizim tomonidan ballni ushbu mezonning hisobga olinadigan qiymatiga ko'paytirish orqali avtomatik ravishda amalga oshiriladi.

3.31. Xarid qilinayotgan tovarning (ishning, xizmatning) o'ziga xos xossalari va xususiyatlaridan kelib chiqib, xarid komissiyasi ishtirokchilarga shartnomani bajarish uchun zarur professional va texnik malaka ma'lumotlariga, kasbiy va texnik kompetensiyaga, moliyaviy resurslarga, jihozlarga va boshqa moddiy imkoniyatlarga, boshqaruv malakaga, ishonchliligiga, tajribaga va obro'ga, shuningdek inson resurslariga ega ekanligiga ishonch hosil qilish uchun qo'shimcha mezon va talablarni belgilash huquqiga ega.

Bunda ishtirokchilarni kamsitishga olib kelishi mumkin bo'lgan mezonlarni, talablarni va tartib-taomillarni qo'llashga yo'l qo'yilmaydi.

3.32. Tender hujjatlarida elektron tender ishtirokchisining malaka talablariga mos kelishini tasdiqlovchi hujjatlarning elektron tizimga biriktirilishi nazarda tutilishi mumkin. Davlat buyurtmachisi tender hujjatlarida nazarda tutilmagan mezonlar bo'yicha ishtirokchining

malakasini baholashga yoki tender hujjatlarida nazarda tutilmagan hujjatlarni taqdim etilishini talab qilishga haqli emas.

3.33. Tender hujjatlarida belgilangan shartlardan kelib chiqib elektron tizim avtomatik ravishda:

tender taklifining texnik va narx qisimlarini baholashni hisobga olgan holda eng yuqori bal to'plagan ishtirokchini (bal usulidan foydalanganda). Ikki yoki undan ortiq ishtirokchilar bir xil ball to'plagan bo'lsa, tender taklifini barchadan oldin joylashtirgan ishtirokchi g'olib deb topiladi;

tender takliflarining texnik qismini baholash natijalariga ko'ra elektron tenderda ishtirok etishni davom ettirishga ruxsat berilgan ishtirokchilar orasidan eng past narxni taklif etgan ishtirokchini (eng past narx usulidan foydalanganda) g'olib sifatida aniqlaydi.

Zaxira ijrochisini aniqlash mazkur bandda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

3.34. Xarid komissiyasining qarorlari uning a'zolari umumiy sonining ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi.

3.35. Tender takliflarini ko'rib chiqish natijalariga ko'ra xarid komissiyasining mas'ul kotibi elektron tizimdagi mavjud shablonlar asosida xarid komissiya yig'ilishining elektron bayonnomalarini shakllantiradi hamda tasdiqlash uchun xarid komissiyasi a'zolariga yo'llaydi.

Xarid komissiyasi a'zolari yig'ilishining elektron bayonnomalarini elektron raqamli imzolaridan foydalangan holda tasdiqlaydi. Elektron bayonnomadan ko'chirma portalda avtomatik ravishda e'lon qilinadi.

3.36. Tender takliflarini ko'rib chiqish va baholash bayonnomasida quyidagi axborot bo'lishi kerak:

tender takliflari ko'rib chiqiladigan hamda baholanadigan sana va vaqt to'g'risida;

hozir bo'lgan xarid komissiyasi a'zolarining va elektron tender ishtirokchilari vakolatli vakillarining tarkibi haqida;

tender takliflari ko'rib chiqilgan elektron tender ishtirokchilari to'g'risida;

tender takliflari ularni rad etishning aniq sabablari ko'rsatilgan holda rad etilgan elektron tender ishtirokchilari haqida;

elektron tender g'olibi to'g'risida qabul qilingan qaror haqida;

elektron tender g'olibining nomi (yuridik shaxs uchun), familiyasi, ismi, otasining ismi (jismoniy shaxs uchun), turgan joyi (pochta manzili).

3.37. Elektron tenderning istalgan ishtirokchisi tender takliflarini ko'rib chiqish va baholash bayonnomasi e'lon qilinganidan so'ng davlat buyurtmachisiga elektron tender natijalari bo'yicha tushuntirishlarni taqdim etish to'g'risida so'rov yuborishga haqli.

3.38. Davlat buyurtmachisi bunday so'rov kelib tushgan sanadan e'tiboran uch ish kuni ichida elektron tender ishtirokchisiga tegishli tushuntirishlarni taqdim etishi shart.

3.39. Elektron tender o'tkazish natijalariga ko'ra shartnoma elektron hujjat shaklida tuziladi, tomonlarning elektron raqamli imzolari bilan tasdiqlanadi va operator tomonidan shartnomalar reestriga kiritiladi.

IV. Elektron do'kondan foydalanish tartibi

4.1. Elektron do'kon maxsus talablar tatbiq etilmaydigan iste'mol tovarlarining va boshqa tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) davlat xaridlarini amalga oshirish uchun mo'ljallangan maxsus axborot portalidagi maxsus maydonchadir.

4.2. Elektron do'konda quyidagi davlat xaridlari amalga oshirilishi mumkin:

bir shartnoma bo'yicha bazaviy hisoblash miqdorining yigirma besh ming baravarigacha (byudjet buyurtmachilari uchun bazaviy hisoblash miqdorining ikki ming besh yuz baravarigacha) qiymatdagi tovarlarning;

bir shartnoma bo'yicha bazaviy hisoblash miqdorining yuz baravarigacha (byudjet buyurtmachilari uchun bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravarigacha) qiymatdagi ishlarning, xizmatlarning davlat xaridlari amalga oshirilishi mumkin.

Elektron do'kon orqali byudjet buyurtmachisi tomonidan ayni bir turdagi ishlarning, xizmatlarning davlat xaridi bir moliya yili davomida bazaviy hisoblash miqdorining besh yuz baravarigacha (korporativ buyurtmachilar uchun bazaviy hisoblash miqdorining bir ming baravarigacha) amalga oshirilishi mumkin.

V. Kichik qiymatli xaridning soddalashtirilgan tartib-taomilini amalga oshirish mezonlari

5.1 Summasi bir shartnoma bo'yicha bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravari miqdoridan oshmaydigan (byudjet buyurtmachilari uchun bazaviy hisoblash miqdorining yigirma besh baravari miqdoridan oshmaydigan) davlat xaridlari xarid komissiyasining ishtirokisiz o'tkazilishi mumkin, biroq bir moliya yilida bir korporativ buyurtmachi uchun bazaviy hisoblash miqdorining bir ming baravari miqdoridan oshmasligi va bir moliya yilida bir byudjet buyurtmachisi uchun bazaviy hisoblash miqdorining besh yuz baravari miqdoridan oshmasligi kerak.

Bunda g'olib davlat xaridlari o'tkazilishi to'g'risidagi e'lon joylashtirilmagan holda, ochiq axborot manbalaridan olingan narxlarni solishtirish yo'li bilan yoki tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) kamida uchta potensial yetkazib beruvchilaridan narxlarni so'rash yo'li bilan davlat buyurtmachisi tomonidan aniqlanadi.

VI. Boshlang'ich narxni pasaytirish uchun o'tkaziladigan auksiondan foydalanish tartibi

6.1. Boshlang'ich narxni pasaytirish uchun o'tkaziladigan auksion (bundan buyon matnda auksion deb yuritiladi) davlat xaridlarining raqobatli usuli bo'lib, uni tashkil etishda narx ishtirokchini tanlashning yagona mezon bo'ladi va bunda mazkur norma tovarlarni belgilangan sifat standartlariga muvofiq holda yetkazib berish talabini bekor qilmaydi.

5.2. Tovarni e'londa bayon etilgan shartlar asosida eng past narx bo'yicha yetkazib berishni taklif qilgan ishtirokchi auksionning g'olibi bo'ladi.

5.3. Tovarning qiymati bir shartnoma bo'yicha bazaviy hisoblash miqdorining yigirma besh ming baravarigacha bo'lgan miqdorini tashkil etishi talab etiladi.

5.4. Davlat buyurtmachisi tomonidan raqobatni oshirish maqsadida har bir lotda maksimal darajada kam turdagi bozor segmentatsiyadan kelib chiqib tovarlar joylashtirilishi shart. Ayni bir lotda ikki turdagi tovarlar joylashtirilishigi yo'l qo'yilmaydi.

VII. To'g'ridan-to'g'ri shartnomalar bo'yicha davlat xaridlarini amalga oshirish tartibi

7.1. To'g'ridan-to'g'ri shartnomalar bo'yicha davlat xaridlari quyidagi hollarda amalga oshirilishi mumkin:

7.2. Yagona yetkazib beruvchilar reestriga kiritilgan yagona yetkazib beruvchi bilan davlat xaridini amalga oshirish uchun ruxsat etilgan tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) davlat xaridi;

7.3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari asosida to'g'ridan-to'g'ri shartnomalar bo'yicha amalga oshiriladigan tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) davlat xaridi;

7.4. favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish maqsadida O'zbekiston Respublikasining ehtiyojlarini ta'minlash uchun zarur bo'lgan tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) davlat xaridi;

7.5. sud muhokamalarida ishtirok etish uchun advokatni (vakilni) tayinlash bilan bog'liq bo'lgan davlat xaridi;

7.6. boshqa yetkazib beruvchi tomonidan mahsulot yetkazib berish imkoniyati bo'lmagan taqdirda, litsenziya bitimiga (shartnomasiga, kontraktiga) asosan tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) intellektual faoliyat natijalari muallifidan yoki intellektual faoliyat natijalaridan mutlaq foydalanish huquqiga ega bo'lgan yetkazib beruvchidan, shuningdek fan, adabiyot va san'at asarlari, ijrolar, fonogrammalar, efir yoki kabel orqali ko'rsatuv yoxud eshittirish beruvchi tashkilotlarning ko'rsatuvlari yoki eshittirishlari kabi intellektual faoliyat natijalarining ushbu intellektual mulk obyektiga nisbatan mutlaq huquqqa ega bo'lgan yagona shaxsdan davlat xaridi;

7.7. narxi (tarifi) davlat tomonidan tartibga solinadigan tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) davlat xaridi;

7.8. davlat buyurtmachisi faoliyatini amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan xizmat safarlari va boshqa hollar uchun chiptalarning davlat xaridi (avia, temir yo'l va yo'nalishli transportiga), shuningdek yashash xarajatlari;

7.9. boshqa yetkazib beruvchi tomonidan xizmat ko'rsatish imkoniyati bo'lmagan taqdirda, yetkazib beruvchi tomonidan avval olib kelingan tovarlarga (ishlarga, xizmatlarga) kafolat muddati tugaganidan keyin va joriy xizmat ko'rsatish (ehtiyot qismlarni xarid qilish), shuningdek avval xarid qilingan dasturiy mahsulotni kuzatish va (yoki) uni funksiyaviy jihatdan kengaytirish;

7.10. giyohvandlik vositalarini va psixotrop moddalarni saqlash hamda olib kirish (olib chiqish);

7.11. favqulodda hollarda tabiat hodisalari, epidemiyalar va kasalliklar tarqalishining oldini olish yoki uning oqibatlarini bartaraf etish uchun zarur tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) vakolatli idoralar tomonidan tasdiqlanadigan davlat xaridi;

7.12. tabiiy ofatlarning va texnogen halokatlarning oqibatlarini tezkor bartaraf etish, shuningdek davlat buyurtmachisining to'laqonli faoliyat olib borishiga ta'sir ko'rsatadigan tarzda kommunikatsiyalar, mexanizmlar, jihozlar va boshqa asbob-uskunalar ishdan chiqqan hollarda avariyalarni bartaraf etish uchun tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) davlat xaridi;

7.13. O'zbekiston Kasaba uyushmalari Federatsiyasi Kengashining, vazirliklar, idoralar, davlat korxonalari va muassasalarining sanatoriy-kurort va sog'lomlashtirish muassasalariga, bolalar sog'lomlashtirish oromgohlariga yo'llanmalarning, shuningdek madaniy-ommaviy tadbirlarga chiptalarning davlat xaridi;

7.14. O'zbekiston Respublikasining ishlab chiqaruvchilaridan yoki ularning rasmiy dilerlaridan va distribyutorlaridan xarid qilinadigan yangi avtotransport vositalarining, maxsus va qishloq xo'jaligi texnikasining davlat xaridi;

7.15. qo'shimcha ishlarni va xizmatlarni amalga oshirish uchun shartnoma umumiy boshlang'ich summasining 10 foizidan oshmaydigan miqdordagi xarajatlar, bundan ushbu Qonun 34-moddasining o'n birinchi qismida nazarda tutilgan hol mustasno;

7.16. aviatsiya korxonalari tomonidan ishlab chiqaruvchilardan yoki sertifikatlashtirilgan yetkazib beruvchilardan import shartnomalari bo'yicha xarid qilinadigan aviatsiya texnika jihozlari, shu jumladan havo kemalari, aviadvigatellar va ularning butlovchi qismlari, aviatsiya uchun axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va dasturiy mahsulotlarning davlat xaridi;

7.17. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining, chet davlatlar va hukumatlar rahbarlarining, shuningdek parlament a'zolarining va xalqaro tashkilotlar rasmiy delegatsiyalarining tashriflari munosabati bilan yashash, ovqatlanish, madaniy tadbirlarni tashkil etish hamda o'tkazish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar, transport xarajatlari, suvenirlar, sovg'alar xaridi va boshqa tashkiliy masalalar uchun nazarda tutilgan xarajatlar;

7.18. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining zaxira jamg'armasidan ajratiladigan mablag'lar, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining chet el delegatsiyalarini qabul qilish va xorijiy mamlakatlarga delegatsiyalarni yuborish bo'yicha rejalashtirilgan mablag'lar hisobidan xarid qilinadigan tovarlar (ishlar, xizmatlar);

7.19. quyidagilar uchun oziq-ovqat mahsulotlarining davlat xaridi:

davolash-profilaktika va ta'lim muassasalari;

mehmonxona va restoran xizmatlari ko'rsatish;

muruvvat va nogironligi bo'lgan shaxslar uylari;

mehribonlik uylari va internatlar;

qariyalar uylari;

7.20. fuqarolarni tibbiy ko'rikdan o'tkazish va davolash, shu jumladan jarrohlik amaliyoti va reabilitatsiya yordami bilan bog'liq xarajatlar;

7.21. mutaxassislarni xorijda tayyorlash va vatandoshlar bilan muloqot qilish yuzasidan "El-yurt umidi" jamg'armasi tomonidan ta'lim dasturlarini tashkil etish, respublikaga xorijiy olimlar va mutaxassislarni, shu jumladan vatandoshlarni jalb etish xizmatlari;

7.22. avval tuzilgan shartnomalardagi yetkazib beruvchilar bilan aloqa, Internet va teleradiouzatish xizmatlari bo'yicha davlat xaridi.

Davlat buyurtmachilari to'g'ridan-to'g'ri shartnomalar tuzilganligi to'g'risidagi axborotni shartnoma tuzilgan paytdan e'tiboran besh ish kuni ichida maxsus axborot portaliga joylashtirishi shart.

To'g'ridan-to'g'ri shartnomalar tuzilganligi to'g'risidagi axborot maxsus axborot portaliga joylashtirilmagan bo'lsa, ushbu shartnomalar bo'yicha to'lovlar amalga oshirilmaydi.

Davlat buyurtmachisi ushbu moddada nazarda tutilgan davlat xaridlarini amalga oshirish chog'ida xarid qilish tartib-taomillarining boshqa raqobatli turlaridan ham ushbu Qonun talablariga muvofiq foydalanishi mumkin.

Agar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlarida, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlarida tovarning (ishning, xizmatning) davlat xaridini to'g'ridan-to'g'ri shartnoma asosida amalga oshirishga ruxsat berilsa, shartnoma va shartnomaga oid qo'shimcha kelishuvlar Kompleks ekspertiza qilish markazida kompleks ekspertizadan o'tkazilishi lozim, bundan qonunchilikda belgilangan hollar mustasno.

Favqulodda holatning oldini olish maqsadida vakolatli organ tomonidan to'g'ridan-to'g'ri shartnomalar tuzish o'rniga hadli kelishuvdan yoki kichik qiymatli xaridning soddalashtirilgan tartib-taomilidan foydalanishga ruxsat beriladi.

VIII. Yagona yetkazib beruvchidan davlat xaridi

8.1 Ushbu Qonunda belgilangan tartibda yagona yetkazib beruvchi deb topilgan va Yagona yetkazib beruvchilar reestriga kiritilgan tovarlar (ishlar, xizmatlar) yetkazib beruvchisi yagona yetkazib beruvchidir.

Yagona yetkazib beruvchidan tovar (ish, xizmat) olish zarur bo'lgan taqdirda, yetkazib beruvchi hamda davlat buyurtmachisi o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri shartnoma tuziladi va bu shartnoma to'g'risidagi axborot u tuzilgan paytdan e'tiboran besh ish kuni ichida maxsus axborot portaliga joylashtirilishi lozim.

Yagona yetkazib beruvchidan davlat xaridi quyidagi alohida hollarda amalga oshiriladi:

bozorda muqobillari bo'lmagan va faqat yagona yetkazib beruvchidan olish mumkin bo'lgan texnik jihatdan murakkab tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) davlat xaridi;

madaniy qimmatliklarni olish;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlarida yoki O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlarida yagona yetkazib beruvchi sifatida belgilangan subyektlardan davlat xaridlari;

tabiiy monopoliya subyekti tovarlarining (ishlarining, xizmatlarining) davlat xaridi;

o'z vakolatlariga muvofiq faqat davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari yoki ularning tasarrufidagi davlat muassasalari va tashkilotlar tomonidan amalga oshirilishi mumkin bo'lgan ishlarga yoki ko'rsatilishi mumkin bo'lgan xizmatlarga ehtiyoj paydo bo'lishi.

VIII. Davlat buyurtmachilari tomonidan "taklif so'rovi" orqali xarid qilinishi mumkin bo'lgan tovarlar (ishlar, xizmatlar)

8.1. Bank (banklararo) xizmatlar va operatsiyalar, qurilish obyektlarida banklar tomonidan amalga oshiriladigan nazorat o'lchovi xizmatlari bundan mustasno.

8.2. Davlat buyurtmachisi tomonidan uning tarkibidagi yoki yuqori turuvchi tashkiloti ishlab chiqaradigan tovar (ko'rsatadigan xizmat, bajaradigan ish)larning ayni bir turi uchun amalga oshiriladigan davlat xaridi.

8.3. Sport, madaniy-ommaviy tadbirlar, ko'rgazmalar, yarmarkalar, anjumanlar, seminarlar va o'quv mashg'ulotlarini tashkil etish hamda o'tkazish uchun binolar, inshootlar va asbob-uskunalarni ijaraga olish.

8.4. Ommaviy axborot vositalarida matbuot anjumani, brifing, mavzuli teleko'rsatuv va boshqa tadbirlarni o'tkazish, reklama joylashtirish, maqola chop etish.

8.5. Turar yoki noturar joyni (inshootni) xarid qilish yoki ijaraga olish, shuningdek, uning ta'minoti bo'yicha ekspluatatsiya xarajatlari.

8.6. Davriy nashrlar (gazetalar, jurnallar)ga, shu jumladan, ularning elektron variantlariga obuna bo'lish.

8.7. Benzin, suyultirilgan va siqilgan gaz, dizel yonilg'isi va ko'mir mahsulotlari hamda elektr energiyasi manbalarida harakatlanuvchi transport vositalarini quvvatlantiruvchi elektr energiyasi.

8.8. Qoraqalpog'iston Respublikasining respublika byudjeti, viloyatlarning viloyat byudjetlari, Toshkent shahrining shahar byudjeti, tuman va shaharlar byudjetlari zaxira jamg'armalaridan ajratiladigan mablag'lar hisobidan xarid qilinadigan tovarlar (ishlar, xizmatlar).

8.9. Maxsus va xizmat avtotransporti vositalarini, havo kemalarini, shuningdek, tibbiyot uskunalarini ta'mirlash bo'yicha xizmatlar.

8.10. Xalqaro va davlatlararo darajadagi tadbirlarni tashkil etish va o'tkazish bilan bog'liq xarajatlar.

8.11. Fuqaro aviatsiyasi korxonalari tomonidan ishlab chiqaruvchilardan yoki sertifikatlashtirilgan yetkazib beruvchilardan havo kemalarini ekspluatatsiya qilish va ta'mirlash uchun xarid qilinadigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) va materiallar, shu jumladan, aviatsiya servis tovarlari, materiallar, inventarlar va ularning qismlari, maxsus gilam qoplamalari, havo kemalari o'rindiqlariga qoplamalar tayyorlash uchun matolar, aviatsiya shinalari, shuningdek, aviatsiya korxonalarining chet eldagi vakolatxonalari uchun zarur bo'lgan tovarlarning (ishlar, xizmatlar) xaridi.

8.12. Ta'lim muassasalari uchun darsliklar va o'quv-metodik jamlanmalarni nashr etish (qayta nashr etish) uchun mo'ljallangan qog'oz va boshqa sarflash materiallari.

8.13. O'zbekiston futbol assotsiatsiyasi huzuridagi futbol akademiyalari uchun elektron hisoblash uskunalari, o'yinlar va o'quv-mashq yig'inlarini tahlil qilish dasturiy ta'minot va uskunalar, Xalqaro futbol assotsiatsiyalari federatsiyasi talablari bo'yicha futbol to'plari, sport kiyimlari va ekipirovkalar hamda futbol uchun oyoq kiyimlar.

8.14. Xalqaro sport federatsiyalari (assotsiatsiyalari) tomonidan ularning talab va tavsiyalariga asosan xalqaro sport musobaqalari hamda professional sportchilar shug'ullanishi uchun zarur bo'ladigan xorijda ishlab chiqarilgan sport anjomlari, jihozlari, uskunalari, maxsus mashg'ulot trenajyorlari, zamonaviy ilmiy texnologiya vositalari, maxsus sport kiyimlari (ekipirovkalar), sport tibbiyoti jihozlari, tibbiy biologik va farmakologik preparatlar.

8.15. Xalqaro sport musobaqalarida yuqori natijalarga erishgan ishtirokchilarni kutib olish bilan bog'liq xaridlar (transport xizmatlarini ko'rsatish, asbob-uskunalarni ijaraga olish, banket va ovqatlanishni tashkil etish bo'yicha xizmatlar, suvenirlar, sovg'alar, gullar hamda gul bilan bezatish, bannerlar va bukletlar tayyorlash, tadbirlar va anjumanlarni tashkil etish, maxsus va milliy kiyimlar va boshqalar).

8.16. O'rmon va yashil hududlarni ko'paytirish, cho'llanishga qarshi kurashish agentligi tizimidagi tashkilotlar va botanika bog'lari hamda Qishloq xo'jaligi vazirligi tizimidagi ilmiy-

tadqiqot institutlari tomonidan yetishtirilgan ko'chat va nihollar, shuningdek, ularni parvarish qilish bo'yicha xizmatlar.

8.17. O'zbekiston Respublikasi turizm salohiyatini targ'ib qilishga yo'naltirilgan xorijiy kompaniyalarning prodyuserlik va reklama xizmatlari, xorijiy teleradiokompaniyalar va boshqa ommaviy axborot vositalarining reklamalar, reportajlar va boshqa rolklarni tayyorlash va translyatsiya qilish bo'yicha xizmatlari.

8.18. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasining Davlat rezidensiyalariga xizmat ko'rsatish va tadbirlarni tashkil etish boshqarmasi tuzilmasiga kiradigan davlat rezidensiyalari hududlarini obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish uchun Hukumat qarorlari va topshiriqlari asosida, shu jumladan, pudratchilar tomonidan, ushbu maqsadlarga ajratilgan mablag'lar hisobiga tovarlar (ishlar, xizmatlar) xarid qilish.

8.19. Ilmiy faoliyatga oid davlat dasturlari loyihalarini bajarishda ishtirok etuvchi byudjet tashkilotlari tomonidan tadqiqotlar o'tkazish maqsadida reaktivlar va reagentlar xarid qilish.

8.20. Texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi milliy normativ hujjatlar, davlat standartlarini ishlab chiqish va qayta ishlash, shuningdek, shaharsozlik faoliyati sohasidagi xorijiy normativ hujjatlarni moslashtirish bo'yicha xizmatlar.

8.21. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi muzeyi ekspozitsiyasi, muzey va kutubxona fondlarini shakllantirish maqsadida xorijda va O'zbekistonda tayyorlanadigan eksponatlar, san'at asarlari, suratlar, haykallar va byustlar, gilamlar, matolar, qo'lyozmalar va nashr asarlari nusxalari, xaritalar, pannolar, stendlar, video-audio va yuqori texnologik namoyishlar uchun materiallar xaridi.

8.22. Oliy ta'lim muassasalari tomonidan xorijiy davlatlardan o'quv va ilmiy adabiyotlar, darsliklar hamda o'quv qo'llanmalarni (mualliflik huquqi bo'lgan ishlab chiqaruvchilardan), sarflanadigan laboratoriya materiallari (reaktivlar, kimyoviy idish, butlovchi, biologik materiallar va boshqa obyektlar) xarid qilish.

8.23. Monopolist korxonalar va (yoki) ustav fondi (kapitali)da davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo'lgan yuridik shaxs, ustav fondi (kapitali)ning 50 foizi va undan ortig'i ustav fondi (kapitali)da davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo'lgan yuridik shaxsga tegishli bo'lgan yuridik shaxs tomonidan birja savdolarida sotilayotgan mahsulotlarni xaridorlarga affillangan shaxs bo'lgan tashish xizmatini ko'rsatuvchi korxonalarning avtotransportda tashish xizmatlari.

8.24. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan tasdiqlanadigan ro'yxatga muvofiq ilmiy-tadqiqot loyihalarini amalga oshirish uchun zarur bo'ladigan tovarlar (ishlar, xizmatlar)ning davlat xaridi.

8.25. Suv xo'jaligi vazirligi tomonidan Davlat byudjeti hamda Suv xo'jaligini rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari hisobidan davlat xaridlari sohasidagi vakolatli organ bilan kelishilgan holda tasdiqlanadigan ro'yxat bo'yicha suv xo'jaligi obyektlarining loyiha hujjatlarini ishlab chiqish xizmatlari.

8.26. O'zbekiston Respublikasining xorijdagi diplomatik vakolatxonalari tomonidan amalga oshiriladigan davlat xaridlari.

8.27. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari asosida "taklif so'rovi" bo'yicha amalga oshiriladigan tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) davlat xaridi.

IX. Elektron kooperatsiya portali

9.1. Elektron kooperatsiya portali quyidagilarni:

a) bir necha mezonlar va ko'rsatkichlar bo'yicha izlash imkoniyatiga ega bo'lgan, muntazam yangilab boriladigan hamda quyidagilar:

10 ta belgidan iborat TIF TN kodlari bilan o'zaro bog'liqlikda har bir mahsulot turi bo'yicha tovar bozorining hajmi (ishlab chiqarish, import, eksport hajmi) to'g'risidagi;

mahalliy tashkilotlar tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar nomenklaturasi, ularning texnik va narx ko'rsatkichlari to'g'risidagi;

buyurtmachilarning kelgusi davr uchun xarid reja-jadvallari to'g'risidagi;

mahalliy tashkilotlar negizida ishlab chiqarish tavsiya etilayotgan istiqbolli mahsulot turlari ro'yxati to'g'risidagi ma'lumotlarni qamrab oluvchi ma'lumotlar bazasini shakllantirish va joylashtirishni;

b) tashkilotlar tomonidan kerakli shakllar onlayn rejimida mustaqil to'ldirilishi orqali mahalliy tashkilotlar uchun axborot ma'lumotlar bazasiga bepul kiritilishini;

v) yetkazib beruvchilar bilan davlat boshqaruvi organlari va xo'jalik birlashmalari o'rtasida interaktiv hamkorlik qilish imkoniyatini;

g) davlat xaridlari maxsus axborot portali bilan davlat xaridlari bo'yicha integratsiyasini;

d) davlat boshqaruvi organlari va xo'jalik birlashmalari ma'lumotlar bazalari bilan integratsiyasini;

e) mahalliy ishlab chiqaruvchilar va ular tomonidan ishlab chiqariladigan tovarlar reestri yuritilishini va jamoatchilikka ochiq qilinishini ta'minlaydi.

X. Xaridlari shaffofligini ta'minlash va samaradorligini oshirish tartibi

Jamiyat va tarmoq korxonalari tomonidan:

10.1. davlat xaridlarini amalga oshirishda xarid qilish tartib-taomillarini o'tkazish to'g'risidagi e'lonlar va davlat xaridlari natijalari to'g'risidagi axborotni maxsus axborot portali hamda ommaviy axborot vositalarida joylashtirish;

10.2. tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) qiymati bazaviy hisoblash miqdorining yigirma besh ming baravari miqdoridan oshgan hollarda, xaridga doir texnik topshiriqlar va tender hujjatlarini kompleks ekspertizadan o'tkazish uchun belgilangan tartibda Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi huzuridagi "Loyihalar va import kontraktlarini kompleks ekspertiza qilish markazi" davlat unitar korxonasiga kiritish;

10.3. davlat xaridlarining yillik va choraklik reja-jadvallarini, shuningdek, import qilish rejalashtirilgan tovarlar (ishlar, xizmatlar) ro'yxatlarini xaridlarning maqsadga muvofiqligi nuqtayi nazaridan kuzatuv kengashi majlisida ko'rib chiqish;

10.4. Jamiyat va tarmoq korxonalari tomonidan quyidagilar to'g'risidagi ma'lumotlarni Ochiq ma'lumotlar portaliga va o'z rasmiy veb-saytlariga joylashtirib, ularni har chorakda yangilab borish:

amalga oshirilgan davlat xaridlari, shu jumladan to'g'ridan-to'g'ri shartnomalar bo'yicha xarid qilinadigan tovarlar (ishlar, xizmatlar);

o'zlarining yillik xarajatlar smetasi va uning ijrosi, shu jumladan obyektlarni qurish, rekonstruksiya qilish va kapital ta'mirlash ishlari, avtomototransport vositalarini sotib olish xarajatlari;

davlat xaridlarini amalga oshiruvchi komissiyaning tasdiqlangan a'zolari to'g'risidagi ma'lumotlar (famiyasi, ismi va otasining ismi, ish joyi va egallab turgan lavozimi);

XI. Manfaatlar to'qnashuvini oldini olish va korrupsiyaga yo'l qo'ymaslik bo'yicha talablar

10.1. Jamiyat va tarmoq korxonalari xaridlarida manfaatlar to'qnashuvi va korrupsiyaga yo'l qo'ymaslik;

10.2. Davlat xaridlari jarayoni ustidan dastlabki va joriy nazoratni davlat xaridi bosh mutaxassisi tomonidan amalga oshirishni yo'lga qo'yish;

10.3. asossiz ustunlikka erishish yoki boshqa noqonuniy maqsadlarga erishish uchun har qanday shaxs foydasiga yoki ulardan ta'sir o'tkazish uchun mulkiy huquqlar va boshqa moddiy yoki nomoddiy manfaatlar uchun taklif qilmaslik, va'da bermaslik, ruxsat bermaslik, tashabbus ko'rsatmaslik, ta'minlashga rozilik bermaslik, shuningdek, bevosita yoki bilvosita pul yoki boshqa moddiy boyliklarni olmaslik, talab qilmaslik yoki roziligini bildirmaslik;

10.4. boshqalar tomonidan korrupsion harakatni amalga oshirish yoki ishtirok etishga tayyorgarlik sifatida talqin qilinishi mumkin bo'lgan xatti-harakatlardan voz kechish;

10.5. manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelishi mumkin bo'lgan har qanday imkoniyatga yo'l qo'ymaslik bo'yicha choralar ko'rish, yuzaga kelgan taqdirda esa manfaatlar to'qnashuvini hal etish Nizom bilan belgilangan tartibda jamiyatni zudlik bilan xabardor qilish va uni O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi doirasida manfaatlar to'qnashuvini siyosatda belgilangan tartibda hal etishga ko'maklashish;

10.6. Jamiyat xodimlari tomonidan O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari, Korrupsiyaga qarshi kurash Nizom, Ishbilarmonlik etikasi kodeksi, korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi manfaatlar to'qnashuvini va/yoki jamiyatning boshqa ichki normativ hujjatlarini, shu jumladan, korrupsiya, huquqbuzarliklarni sodir etishga majbur qilish faktlarini bartaraf etish Nizomni buzish yoki potensial buzish hollari ma'lum bo'lganda, ichki normativ hujjatlar bilan belgilangan tartibda jamiyatni xabardor qilish.

10.7. To'var (ish va xizmat)larni xaridni amalga oshirishda Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens bo'linmalari (keyingi o'irnlarda – Komplayens bo'linmalari) boshqarmasining xarid bo'yicha (manfaatlar to'qnashuvi va korrupsiyaviy xavf-xatar bo'yicha) tegishli xulosasini olgandan so'ng buyurtmachi va ijrochi o'rtasida shartnoma tuzish.

10.8. Xaridning dastlabki bosqichida xarid qilish komissiyasining (G'aznachilik operatsiyalari va xaridlar bo'limining) mas'ul xodimi xardni amalga oshirish uchun taqdim etgan yoki 1C "G'aznachik" tizimiga joylashtirilgan hujjatlarni Komplayens bo'linmasi xaridning qonuniyligini, reja-jadvalga muvofiqligini va boshlang'ich narxning asoslanganligini tekshiradi va ikki (2) ish kunida yozma xulosa beradi.

10.9. Komplayens bo'linmasi xaridning barcha bosqichlarida manfaatlar to'qnashuvi, korrupsiyaviy xavf-xatarlar va qonunchilik talablari buzilishi aniqlanganda xarid qilish komissiyasiga (Boshqaruv raisiga) aniqlangan xolatlar va kamchilar asosida xarid jarayonini to'xtatish yoki bartaraf etish bo'yicha majburiy taqdimnomalar (ko'rsatmalar) kiritish.

10.10. Raqamli texnologilar yordamida "Yagona raqamli platforma" tizimining "Komplayens moduli" va 1C "G'aznachik" tiziminig "Komplaens nazaroti" modullari orqali

manfaatlar to'qnashuvi oldini olish va korrupsiyaga yo'l qo'ymaslik maqsadida xaridlar jarayoni va kontragentlar tekshirish.

10.11. Davlat xaridlari predmetining boshlang'ich narxi yoki shartnoma bahosi va uning moduldagi o'rtacha bozor narxi o'rtasidagi tafovut 10 foizdan ortiq yoxud 20 foizdan past bo'lsa, ushbu xaridlar birinchi darajada tekshiriladigan yuqori xavf-xatar sifatida baholanadi va navbatdan tashqari tekshirish o'tkazish uchun asos bo'ladi;

10.12. Komplayens bo'linmalari Davlat xaridlari doirasida (xaridlar turiga ko'ra) ishlab chiqilgan hujjatlarni dastlabki tekshiruv doirasida xaridning qonuniyligi va asoslanganligini (yillik rejaga kiritilganligi, dastlabki narxlarni asoslanganligi, texnik topshiriq va boshqa xujjatlarda manfaatlar to'qnashuvi va korrupsiyaviy xarakatlarga sharoit yaratib ketilmaganligini) tekshiradi, nazorat tekshiruvida xaridlar komissiyasi tomonidan ishtirokchilarni taqdim etgan hujjatlarini xolis baxolaganligi, ishtirokchilarni affilanmaganligini va korrupsiyaviy xarakatlar sodir etilmaganligini tekshiradi va tegishli xulosa beradi.

10.13. Davlat xaridlarida shaffoflik, adolat, qonuniylik, manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'ymaslik va korrupsiyani oldini olish maqsadida Komplayens boshqarma boshlig'i kuzatuvchi sifatida ishtirok etadi.

Shuningdek, zaruratga ko'ra Komplayens boshqarma boshlig'i Xaridlar komissiyasi tarkibiga a'zo sifatida qo'shilishi mumkin.

XII. Nogironligi bo'lgan shaxslar jamoat birlashmalari korxonalarini qo'llab-quvvatlash

Davlat buyurtmachilari davlat xaridlarini amalga oshirishda nogironligi bo'lgan shaxslar jamoat birlashmalariga tegishli korxonalar ishtirokini kengaytirish va ularni qo'llab-quvvatlash choralarini ko'radi.

Ushbu norma O'zbekiston Respublikasining "Davlat xaridlari to'g'risida"gi hamda "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida"gi qonunlari, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Prezidentning nogironligi bo'lgan shaxslar jamoat birlashmalarini qo'llab-quvvatlashga oid qarorlariga muvofiq qo'llaniladi.

XIII. Yakunlovchi qoida

11.1. Davlat xaridlari sohasida yuzaga keladigan nizolar qonunchilikda belgilangan tartibda hal etiladi.

11.2. Davlat xaridlari subyektlari va ularning mansabdor shaxslari ushbu Qonunga va boshqa qonunchilik hujjatlariga, shuningdek korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qonunchilikka muvofiq davlat xaridlari to'g'risidagi qonunchilikka rioya etilishi va shartnoma bo'yicha o'z zimmasiga yuklatilgan majburiyatlar lozim darajada bajarilishi uchun javobgar bo'ladi.

11.3. Davlat xaridlari to'g'risidagi qonunchilikni buzganlikda aybdor shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo'ladi.

11.4. Davlat xaridlariga oid qonunchilikka o'zgartish va qo'shimchalar kiritilganda, mazkur Nizomga ham tegishli ravishda o'zgartish va qo'shimchalar kiritilishi lozim.

